# IMOM AL-BUXORIY MEROSI ASOSIDA ZAMONAVIY TA'LIMDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Rahmitdinova Nigora Yashin qizi**
Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24133691

**ANNOTATSIYA**

Maqolada Imom al-Buxoriy (810–870) ilmiy merosidagi manba tekshiruvi metodologiyasi — isnod (sanad) tekshiruvi, ilm ar-rijol hamda jarh va ta'dil tamoyillari — zamonaviy media va axborot savodxonligi (MAS) nazariyasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi klassik hadis tanqidi metodologiyasini zamonaviy pedagogik amaliyotga moslashtirish orqali o'quvchi va talabalarda axborotni tanqidiy baholash, manbani tekshirish va yolg'on axborotdan himoyalanish ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, qiyosiy-funksional tahlil va pedagogik modellashtirish metodlari qo'llanildi. Natijada ikki tizim o'rtasidagi beshta funksional moslik aniqlandi va ular asosida besh bosqichli "Tanqidiy tekshiruv" (Isnod-modeli) pedagogik modeli ishlab chiqildi. Modelning har bir bosqichi uchun o'quv vazifalari, yo'naltiruvchi savollar va mashg'ulot shakllari belgilandi. Model umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlik, ma'naviyat asoslari va tanqidiy tafakkur kurslarida qo'llanilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Imom al-Buxoriy, hadis ilmi, isnod, ilm ar-rijol, jarh va ta'dil, media savodxonlik, axborot savodxonligi, tanqidiy tafakkur, manba tekshiruvi, pedagogik model.

**АННОТАЦИЯ**

В статье проводится сравнительный анализ методологии проверки источников в научном наследии имама аль-Бухари (810–870) — проверки иснада, науки о передатчиках ('ильм ар-риджаль) и принципов джарх ва та'диль — с современной теорией медийной и информационной грамотности (МИГ). Цель исследования — разработка научно-педагогических основ формирования у учащихся и студентов навыков критической оценки информации, проверки источников и защиты от недостоверной информации путём адаптации классической методологии критики хадисов к современной педагогической практике. Использованы методы историко-сравнительного анализа, контент-анализа, сравнительно-функционального анализа и педагогического моделирования. В результате выявлены пять функциональных соответствий между двумя системами и на их основе разработана пятиэтапная педагогическая модель «Критическая проверка» (Иснад-модель); для каждого этапа определены учебные задачи, направляющие вопросы и формы занятий. Модель может применяться в общеобразовательных и высших учебных заведениях в курсах медиаграмотности, основ духовности и критического мышления.

**Ключевые слова:** имам аль-Бухари, наука о хадисах, иснад, 'ильм ар-риджаль, медиаграмотность, информационная грамотность, критическое мышление, проверка источников, педагогическая модель.

**ABSTRACT**

This article examines the source-verification methodology in the legacy of Imam al-Bukhari (810–870) — isnad verification, the science of narrators ('ilm al-rijal) and the principles of jarh wa ta'dil — in comparison with contemporary media and information literacy (MIL) theory. The aim of the study is to develop the scientific and pedagogical foundations for building learners' skills in critical evaluation of information, source verification and resistance to false information by adapting classical hadith-criticism methodology to modern educational practice. Historical-comparative analysis, content analysis, comparative-functional analysis and pedagogical modeling were employed. Five functional correspondences between the two systems were identified, and on this basis a five-stage "Critical Verification" (Isnad model) pedagogical model was developed, with learning tasks, guiding questions and activity formats specified for each stage. The model can be applied in secondary and higher education within courses on media literacy, foundations of spirituality and critical thinking.

**Key words:** Imam al-Bukhari, hadith science, isnad, narrator criticism, media literacy, information literacy, critical thinking, source verification, pedagogical model.

**KIRISH**

Zamonaviy raqamli jamiyatda axborot oqimining tezlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi va sun'iy intellekt asosidagi kontent yaratish vositalarining ommalashuvi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifani qo'ymoqda: o'quvchi va talabalarda axborotni tanqidiy qabul qilish, uning ishonchliligini tekshirish hamda yolg'on yoki chalg'ituvchi ma'lumotlardan himoyalanish ko'nikmalarini shakllantirish. C. Wardle va H. Derakhshan bu hodisani "axborot buzilishi" (information disorder) deb atab, uning uch turini — bilmasdan tarqatilgan noto'g'ri axborot (mis-information), ataylab tarqatilgan yolg'on axborot (dis-information) va zarar yetkazish maqsadida ishlatilgan haqiqiy axborot (mal-information) — farqlaydi [9].

YUNESKOning media va axborot savodxonligi (MAS) kontseptsiyasi ushbu muammoni hal etishning xalqaro miqyosda tan olingan asosi hisoblanadi va manbani baholash, kontentni tanqidiy tahlil qilish hamda axborotdan mas'uliyat bilan foydalanish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi [4; 5]. Amaliy yo'nalishdagi tadqiqotlar ham shu xulosani tasdiqlaydi: S. Wineburg va S. McGrew professional faktcheker (fakt tekshiruvchi)lar raqamli axborotni tarixchi olimlar va talabalarga qaraganda aniqroq baholashini, buning sababi esa ularning saytni o'qish bilan cheklanmay, manba haqida boshqa mustaqil manbalar nima deyishini tekshirishi — "lateral o'qish" ekanini ko'rsatgan [10]. M. Caulfield ushbu tajribani o'quv amaliyoti uchun qisqa harakatlar algoritmiga aylantirgan, uning markazida da'voni asl manbasigacha kuzatib borish talabi turadi [11]. Mamlakatimizda yoshlarda media savodxonlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari [7] hamda islom ta'limoti bilan zamonaviy pedagogikaning uyg'unlik masalalari [8] tadqiq etilgan.

E'tiborga molik jihat shundaki, axborotni tanqidiy tekshirish g'oyasi pedagogika uchun mutlaqo yangilik emas. IX asrda yashab ijod etgan buyuk muhaddis Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "al-Jomi' as-sahih" asarini qariyb o'n olti yil davomida tuzgan; rivoyat qilinishicha, u ko'rib chiqqan yuz minglab rivoyatlar ichidan takrorlari bilan yetti mingdan ortiq, takrorlarsiz esa taxminan 2 600 hadisni tanlab olgan [1; 12]. Hadis ilmida "sahih" deb tan olinishi uchun rivoyat besh shartga javob berishi talab qilingan: sanadning uzluksizligi (ittisol as-sanad), roviylarning adolati, ularning zabti (xotira va aniqlik), rivoyatning ishonchliroq

rivoyatlarga zid emasligi (shozz bo'lmasligi) hamda yashirin nuqson (illat)ning yo'qligi [2; 3]. Imom al-Buxoriy bu shartlarga qo'shimcha ravishda ustoz va shogird bir davrda yashagani bilan kifoyalanmay, ularning kamida bir marta uchrashganligi (liqo') isbotlanishini talab qilgan; bu uning metodologiyasini eng qat'iy tizimlardan biriga aylantirgan [12]. Shu ma'noda Imom al-Buxoriy metodologiyasi zamonaviy manba tanqidi va faktlarni tekshirish metodologiyasining ilk tizimli namunalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, milliy ta'lim tizimida media savodxonlikni shakllantirishga oid mavjud yondashuvlar asosan xorijiy tajribaga tayanadi, hadis ilmi bo'yicha tadqiqotlar esa asosan manbashunoslik va dinshunoslik doirasida olib boriladi. Ikki yo'nalish alohida-alohida rivojlanib kelmoqda: milliy-ma'naviy merosdagi boy metodologik tajriba MAS pedagogikasi nuqtai nazaridan deyarli o'rganilmagan va ta'lim amaliyotiga tatbiq etilmagan. Imom al-Buxoriy metodologiyasini zamonaviy MAS nazariyasi bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi bo'lishi bilan birga, milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi** — Imom al-Buxoriy ilmiy-metodologik merosidagi manba tekshiruvi tamoyillarini tahlil qilish va ular asosida zamonaviy ta'limda media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: 1) Imom al-Buxoriyning hadis tanqidi metodologiyasini tizimli tahlil qilish; 2) ushbu metodologiya bilan zamonaviy MAS nazariyasining asosiy komponentlari o'rtasidagi funksional mosliklarni aniqlash; 3) ikki tizim asosida integrallashgan pedagogik modelni loyihalash; 4) modelni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** klassik hadis tanqidi tamoyillari bilan zamonaviy MAS kompetensiyalari o'rtasidagi funksional mosliklar tizimlashtirilib, ular asosida milliy-ma'naviy merosga tayangan besh bosqichli pedagogik model taklif etilganida namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega. Uning **materiallari** ikki guruhdan iborat: birinchi guruhga Imom al-Buxoriyning "al-Jomi' as-sahih" asari [1], hadis ilmi metodologiyasiga oid klassik va zamonaviy asarlar (Ibn Hajar al-Asqaloniy [2], Subhiy as-Solih [3], J. Brown [12]) kiradi; ikkinchi guruhni YUNESKOning MAS bo'yicha o'quv dasturlari [4; 5], axborot buzilishi hamda raqamli manbalarni baholashga oid tadqiqotlar [9–11], shuningdek milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar va pedagogik tadqiqotlar [6–8] tashkil etadi.

**Tadqiqot to'rt bosqichda, quyidagi metodlar yordamida olib borildi.**

**Birinchi bosqich — tarixiy-qiyosiy tahlil.** Birinchi guruh manbalari o'rganilib, ulardan sanad tekshiruvi, roviy tanqidi (jarh va ta'dil) hamda matn tanqidi tamoyillari ajratib olindi va tizimlashtirildi.

**Ikkinchi bosqich — kontent-tahlil.** YUNESKOning "Media and Information Literacy Curriculum for Teachers" [4] va "Media and Information Literate Citizens" [5] hujjatlari hamda [9–11] tadqiqotlarida keltirilgan asosiy kompetensiyalar ajratib olindi. Tahlil birligi sifatida alohida kompetensiya (masalan, manbani aniqlash, kontentni tekshirish, chalg'ituvchi kontentni farqlash, axborotdan axloqiy foydalanish) olindi.

**Uchinchi bosqich — qiyosiy-funksional tahlil.** Ikki tizim — klassik hadis tanqidi va zamonaviy MAS — elementlari ularning tekshiruv jarayonidagi vazifasi bo'yicha taqqoslandi. Moslik mezoni sifatida funksional ekvivalentlik qabul qilindi: ikki element axborotni tekshirish jarayonida bir xil vazifani bajarsa, ular mos deb hisoblandi (masalan, sanad — manba zanjiri; matn tanqidi — kontent tahlili; roviy ishonchliligi — muallif obro'si). Natijalar jadval ko'rinishida rasmiylashtirildi.

**To'rtinchi bosqich — pedagogik modellashtirish.** Aniqlangan mosliklar asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik model loyihalandi va u amaliy mashg'ulot shakllariga (keys-stadi, munozara, loyiha topshiriqlari) moslashtirildi. Modelning qo'llanish imkoniyatlari uchta tipik o'quv stsenariysi — ijtimoiy tarmoqdagi yangilik xabari, video-kontent va ilmiy maqola — misolida sifat jihatidan tahlil qilindi. Ushbu bosqichda pedagogik eksperiment o'tkazilmagan; modelning samaradorligini empirik tekshirish keyingi tadqiqot vazifasi sifatida belgilandi.

## NATIJALAR

### Qiyosiy-funksional tahlil natijalari

Tahlil Imom al-Buxoriy metodologiyasi bilan zamonaviy MAS nazariyasi o'rtasida beshta funksional moslik mavjudligini ko'rsatdi (1-jadval).

**1-jadval. Hadis ilmi metodologiyasi va media savodxonlik komponentlarining qiyosiy tahlili**

| № | Hadis ilmi tamoyili | Media va axborot savodxonligi komponenti |
|---|---|---|
| 1 | Isnod (sanad) — rivoyatchilar zanjirini uzluksizligi bo'yicha tekshirish | Manba zanjirini aniqlash, axborotni asl manbasigacha kuzatish (source tracing) |
| 2 | Ilm ar-rijol — roviyning xotirasi, adolati va ishonchliligini baholash | Muallif yoki nashrning obro'si va vakolatini tekshirish (authority check) |
| 3 | Jarh va ta'dil — roviyni boshqa olimlarning baholari asosida tanqid qilish yoki tasdiqlash | Manbani tanqidiy baholash, mustaqil manbalar orqali kross-tekshiruv (cross-checking, lateral reading) |
| 4 | Matn tanqidi — mazmuniy nomuvofiqlik, shozz va illatni aniqlash | Kontent tahlili, mantiqiy nomuvofiqlik va manipulyatsiya belgilarini aniqlash |
| 5 | "Sahih" darajasini berish — ko'p bosqichli tekshiruvdan so'ng xulosa chiqarish | Faktlarni tekshirish (fact-checking) va asoslangan xulosa chiqarish |

Mosliklar faqat tamoyillar darajasida emas, balki baholash toifalari darajasida ham kuzatiladi. Masalan, hadis ilmidagi "munqati'" (sanadi uzilgan) rivoyat tushunchasi asl manbasi ko'rsatilmagan skrinshot yoki "ishonchli manbalarga ko'ra" degan iqtibosga, "majhul" (noma'lum) roviy tushunchasi esa anonim akkaunt yoki muallifi aniqlanmagan sahifaga mos keladi. Shu bilan birga, muhim farq ham aniqlandi: hadis ilmida tekshiruv obyekti asosan shaxs (roviy) bo'lsa, raqamli muhitda platforma, algoritm va texnik manipulyatsiya vositalari ham tekshiruv obyektiga aylanadi.

**"Tanqidiy tekshiruv" (Isnod-modeli) pedagogik modeli**

Aniqlangan mosliklar asosida besh bosqichli "Tanqidiy tekshiruv" (Isnod-modeli) pedagogik modeli ishlab chiqildi. Model bosqichlari quyidagilardan iborat.

**Birinchi bosqich — manbani aniqlash.** O'quvchi taqdim etilgan axborotning dastlabki manbasini (muallif, nashr, sana) aniqlaydi. Bu bosqich har bir hadisni birinchi roviysigacha uzluksiz zanjir orqali yetkazish tamoyiliga mos keladi.

**Ikkinchi bosqich — manba vakolatini baholash.** O'quvchi manba muallifi yoki nashrning sohadagi tajribasi, obro'si va oldingi faoliyatini tekshiradi. Bu bosqich ilm ar-rijol tamoyilining zamonaviy ko'rinishidir.

**Uchinchi bosqich — kross-tekshiruv.** O'quvchi ayni ma'lumot boshqa mustaqil manbalarda ham uchrashini tekshiradi. Bu bosqich jarh va ta'dil metodiga muvofiq keladi: agar ma'lumot faqat bitta shubhali manbada uchrasa, uning ishonchliligi past baholanadi.

**To'rtinchi bosqich — mazmuniy tahlil.** Kontentdagi mantiqiy nomuvofiqliklar, hissiy manipulyatsiya belgilari va asossiz umumlashtirishlar aniqlanadi. Bu bosqich matn tanqidiga, ya'ni shozz va illatni aniqlash tamoyiliga mos keladi.

**Beshinchi bosqich — xulosaviy baholash.** Oldingi to'rt bosqich natijalari asosida axborotga "ishonchli", "shubhali" yoki "ishonchsiz" darajasi beriladi va bu baho yozma ravishda asoslanadi.

Modelning har bir bosqichi uchun o'quv vazifalari, yo'naltiruvchi savollar va mashg'ulot shakllari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval. "Tanqidiy tekshiruv" (Isnod-modeli) bosqichlarining didaktik tavsifi**

| Bosqich | Hadis ilmidagi asosi | Yo'naltiruvchi savollar | Mashg'ulot shakli |
|---|---|---|---|
| 1. Manbani aniqlash | Isnod (sanad) | Bu ma'lumotni birinchi bo'lib kim, qachon va qayerda e'lon qilgan? Asl manbaga havola bormi? | Keys-stadi: xabarni asl manbasigacha kuzatish |
| 2. Vakolatni baholash | Ilm ar-rijol | Muallif bu sohada mutaxassismi? Nashr qanday obro'ga ega? Oldin noto'g'ri ma'lumot tarqatganmi? | Juftlikda ishlash: muallif "profili"ni tuzish |
| 3. Kross-tekshiruv | Jarh va ta'dil | Boshqa mustaqil manbalar bu haqda nima deydi? Manba haqida boshqalar qanday fikrda? | Guruhda ishlash: lateral o'qish mashqi |
| 4. Mazmuniy tahlil | Matn tanqidi (shozz, illat) | Matnda qarama-qarshilik bormi? Sarlavha mazmunga mosmi? Hissiyotga ta'sir qilish usullari qo'llanganmi? | Munozara, kontentni tahlil qilish varaqasi |
| 5. Xulosaviy baholash | Sahih, hasan, za'if darajalari | Yig'ilgan dalillar qaysi darajani asoslaydi? Qaysi ma'lumot yetishmaydi? | Loyiha topshirig'i: asoslangan yozma xulosa |

**O'quv stsenariylari bo'yicha tahlil natijalari**

Modelni uchta tipik o'quv stsenariysiga tatbiq etish tahlili shuni ko'rsatdiki, turli kontent turlarida modelning turli bosqichlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqdagi yangilik xabarida asl manba ko'pincha ko'rsatilmaydi ("sanadi uzilgan" axborot), shu sababli birinchi va uchinchi bosqichlar asosiy hisoblanadi. Video-kontentda to'rtinchi bosqich yetakchi o'rin tutadi va uni texnik tekshiruv vositalari (kadrlar bo'yicha teskari tasvir qidiruvi, metama'lumotlarni tekshirish) bilan to'ldirish talab etiladi. Ilmiy maqolada esa ikkinchi bosqich — jurnalning taqrizlanishi, muallifning ilmiy faoliyati va ish joyini tekshirish — muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, besh bosqichli tuzilma o'quvchiga axborotni tizimli va izchil tekshirish algoritmini beradi hamda tasodifiy yoki intuitiv baholashning o'rniga dalillarga asoslangan baholashni shakllantirish imkonini yaratadi. Ushbu afzallikning miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun pedagogik eksperiment o'tkazish zarur.

**MUHOKAMA**

Olingan natijalar Imom al-Buxoriy metodologiyasining zamonaviy media savodxonlik pedagogikasi uchun nafaqat tarixiy-madaniy, balki amaliy-metodologik ahamiyatga ham ega ekanini ko'rsatadi. YUNESKO hujjatlarida ta'kidlanganidek, media savodxonlik faqat texnik ko'nikma emas, balki chuqur tanqidiy tafakkur madaniyatini talab qiladi [4; 5]. Imom al-Buxoriy tizimi aynan shunday madaniyatni — har qanday ma'lumotni tekshirmasdan qabul qilmaslik va tekshiruvni izchil, tizimli olib borish madaniyatini namoyon etadi.

Taklif etilgan model zamonaviy dalillarga asoslangan yondashuvlar bilan ham muvofiq keladi. S. Wineburg va S. McGrew aniqlagan "lateral o'qish" strategiyasi — manba haqida uning o'zidan emas, balki boshqa mustaqil manbalardan ma'lumot olish [10] — mohiyatan ilm ar-rijol tamoyilini takrorlaydi: hadis ilmida ham roviy haqidagi baho uning o'z da'vosiga emas, balki boshqa olimlarning guvohligiga asoslangan. M. Caulfield taklif etgan da'voni asl manbasigacha kuzatish talabi [11] esa isnodni birinchi roviygacha tekshirish tamoyiliga mos keladi. Demak, Isnod-modeli zamonaviy amaliyotdan ajralgan muqobil emas, balki uni milliy-tarixiy kontekstda asoslab beruvchi yondashuvdir.

Shu bilan birga, ushbu yondashuvning ayrim cheklovlarini ham ta'kidlash lozim. Birinchidan, klassik isnod tizimi og'zaki va yozma an'anaviy manbalar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, raqamli muhitga xos ko'plab omillar (algoritmik tarqatish, botlar, deepfake kontent) uchun uni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash imkoniyati cheklangan. Shu sababli model texnologik omillarni hisobga oluvchi qo'shimcha mezonlar bilan boyitilishi zarur. Ikkinchidan, modelni amaliyotga tatbiq etish uchun o'qituvchilarning o'zlari ham klassik metodologiya va zamonaviy raqamli vositalar bo'yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Uchinchidan, taqqoslash funksional xarakterga ega: hadis ilmi o'ziga xos diniy-ilmiy kontekstda shakllangan bo'lib, model uning metodologik tajribasini ilmiy-tarixiy meros sifatida qo'llaydi va dunyoviy ta'lim muassasalarida ham shu ma'noda foydalanilishi mumkin. To'rtinchidan, tadqiqot nazariy xarakterga ega va modelning samaradorligi hali empirik jihatdan tasdiqlanmagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy ta'lim tizimida media savodxonlikni shakllantirishda faqat xorijiy modellarga tayanib qolmasdan, mahalliy ilmiy-ma'naviy merosdan foydalanish o'quvchilarda milliy o'zlikka asoslangan tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan ta'lim

tamoyillariga mos keladi [6]. Bu MAS bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda milliy-tarixiy komponentni kiritish maqsadga muvofiq ekanini asoslaydi.

## XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi manba tekshiruvi metodologiyasi — sanadning uzluksizligi, roviylarning adolati va zabti, matnning shozz va illatdan xoliligi talablari — zamonaviy media va axborot savodxonligi nazariyasining tarixiy-metodologik asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

2. Ikki tizim o'rtasida beshta funksional moslik aniqlandi: isnod — manba zanjirini aniqlash; ilm ar-rijol — muallif vakolatini tekshirish; jarh va ta'dil — kross-tekshiruv; matn tanqidi — kontent tahlili; "sahih" darajasini berish — faktlarni tekshirish va asoslangan xulosa.

3. Ushbu mosliklar asosida besh bosqichli "Tanqidiy tekshiruv" (Isnod-modeli) pedagogik modeli ishlab chiqildi va uning har bir bosqichi uchun o'quv vazifalari, yo'naltiruvchi savollar va mashg'ulot shakllari belgilandi.

4. Model umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlik, ma'naviyat asoslari va tanqidiy tafakkur bo'yicha o'quv kurslarida amaliy mashg'ulot vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Kelgusi tadqiqotlar modelning turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan variantlarini ishlab chiqishga, uni raqamli muhitga xos texnologik mezonlar bilan boyitishga hamda samaradorligini nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi pedagogik eksperiment orqali empirik tekshirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Al-Buxoriy, M. I. (2003). Al-Jomi' as-sahih (Sahih al-Buxoriy). Toshkent: Movarounnahr.
2. Ibn Hajar al-Asqaloniy. (1989). Nuxbat al-fikar fi mustalah ahl al-asar. Qohira: Dor al-fikr.
3. As-Solih, S. (1988). Ulum al-hadis va mustalahuhu. Bayrut: Dor al-'ilm lil-malayin.
4. Wilson, C., Grizzle, A., Tuazon, R., Akyempong, K., & Cheung, C.-K. (2011). Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris: UNESCO.
5. Grizzle, A., Wilson, C., Tuazon, R., Cheung, C. K., Lau, J., Fischer, R., et al. (2021). Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Paris: UNESCO.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son). Toshkent.
7. Yusupova, D. (2020). Yoshlarda media savodxonlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Karimov, N. (2019). Islom ta'limoti va zamonaviy pedagogika: uyg'unlik masalalari. Toshkent davlat islom universiteti ilmiy jurnali, 2(14), 45–52.
9. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making (Council of Europe report DGI(2017)09). Strasbourg: Council of Europe.
10. Wineburg, S., & McGrew, S. (2019). Lateral reading and the nature of expertise: Reading less and learning more when evaluating digital information. Teachers College Record, 121(11), 1–40.
11. Caulfield, M. (2017). Web Literacy for Student Fact-Checkers. Pressbooks.